XX – XXI ASRLAR BOSHIDAGI OVOZ DIZAYNI

Qdırbaev Islambek Qutlıbaevich – *o‘qituvshi*
O‘zDSMINF

Tayanch so‘zlar ovoz dizayni, Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX, raqamli texnologiyalar, kino san’ati, teatr akustikasi, dramaturgiya, multimediyalar.

Ключевые слова: звуковой дизайн, Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX, цифровые технологии, киноискусство, театральная акустика, драматургия, мультимедиа.

Key words: sound design, Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX, digital technologies, cinema, theatre acoustics, dramaturgy, multimedia.

XX asrning so‘nggi choragida ovoz texnikasini sifatli takomillashtirish va kino hamda teatrlarda yangi uskunalar bilan qayta jihozlash jarayoni san’atning estetik qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, kinofilmlarda musiqa va shovqin bezaklarini yangi texnologik darajada yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ovoz badiiy ekspressivlikning eng muhim vositalaridan biriga aylandi, ekranda voqealarni yanada kuchliroq idrok etishga xizmat qildi hamda tahrir tezligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shu tariqa ovoz dizayni faqat texnik jarayon emas, balki dramaturgik va estetik kuchga ega san’at yo‘nalishiga aylandi.

1990-yillar raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan ajralib turdi va kino sanoati ham bu jarayondan chetda qolmadi. Raqamli format, xususan, olti kanalli raqamli optik standart Dolby Digital (Dolby SR-D) 1992 yilda “Betmanning qaytishi” filmi orqali ommaga taqdim etildi. Ushbu tizim chap va o‘ng kanallar bilan birga past chastotalar va infratovushlarni uzatish imkoniyatini berdi. Natijada portlash, momaqaldiroq yoki boshqa maxsus effektlarni tomoshabin faqat eshitmay, balki jismonan his qiladigan darajaga erishildi. Bu ovoz dizaynining dramaturgik imkoniyatlarini keskin kengaytirdi.

Keyingi bosqichda “LucasFilm THX” va “Skywalker Sound Studios” bilan hamkorlikda yaratilgan “Dolby Surround EX” texnologiyasi paydo bo‘ldi. U ilk bor “Yulduzli urushlar: Yashirin tahdid” filmida (1999) qo‘llanildi. Ushbu texnologiya auditoriyada ovozning 360 daraja harakatlanishini ta’minlab, ovozni “aylana bo‘ylab” joylashtirish imkonini berdi. Natijada sahnadagi tovush fazoviy ko‘lam kasb etdi, tomoshabin o‘zini voqealar markazida his qila boshladi. 1993-yilda DTS (Digital Theatre Systems) texnologiyasi “Yura davri parki” filmi orqali joriy qilindi. U ovoz yozuvini CD-ROM da saqlab, kino tasviri bilan aniq sinxronizatsiya qilish imkoniyatini berdi. Shu yili Sony kompaniyasi tomonidan SDDS (Sony Dynamic Digital Sound) tizimi ham yaratilgan bo‘lib, ma’lumotlarni kinoplyonkaning chekkasiga joylashtirish orqali ovoz sifati sezilarli darajada oshirildi. Bu tizimlarning barchasi ovoz dizaynerining ishini murakkablashtirgan bo‘lsa-da, dramaturgik ifoda imkoniyatlarini kengaytirib berdi.XXI asr boshida IMAX formati kino san’atida ovoz dizaynini yangi bosqichga olib chiqdi. IMAX kinoteatrlarida ekran hajmining kattaligi, 3D format va patentlangan olti kanalli ovoz tizimi tomoshabin uchun maksimal “mavjudlik effekti”ni ta’minladi. Bu jarayon ovozning faqat eshitiladigan emas, balki his qilinadigan omil sifatida teatr va kinoning badiiy-estetik kuchini oshirishini ko‘rsatdi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat kino va teatrda, balki multimedia loyihalari, kompyuter o‘yinlari, ta’limiy dasturlar va internet muhitida ham ovoz dizaynini keng rivojlantirdi. 2000-yillardan boshlab “DIY” (“do it yourself” – “o‘zing qil”) konsepsiyasi shakllanib, professional studiya uskunalari talab qilmaydigan mustaqil audio dizayn amaliyoti paydo bo‘ldi. Endilikda kompyuter, naushnik va dasturiy ta’minot yordamida ovoz dizayneri mustaqil tarzda murakkab audio kompozitsiyalarni yaratishi mumkin bo‘ldi. Internet orqali kerakli ovoz effektlarini izlab topish, qayta ishlash va yangi kompozitsiyaga qo‘shish jarayonlari sezilarli darajada tezlashdi. Bu esa zamonaviy ovoz dizaynining erkinlik, tezkorlik va ijodiylik bilan uyg‘unlashib ketishiga olib keldi.

Bugungi kunda ovoz dizayni kino, teatr, kompyuter o‘yinlari, reklama va multimediya sanoatining ajralmas qismiga aylandi. Ovoz nafaqat badiiy-estetik muhitni shakllantiradi, balki tomoshabinning idrok jarayonini boshqarish, emotsional rezonansni kuchaytirish va dramaturgik mantiqni chuqurlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli ovoz dizaynini XX–XXI asr boshidagi texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq holda o‘rganish nafaqat san’atshunoslik, balki keng qamrovli madaniy jarayonlarni tahlil qilishda ham dolzarbdir.

Ma’mlakatimizda kino san’ati rivojlanish jarayonida mazkur aytib otilgan ovozlashtirish, ovozni tomoshabinga yetkazib berish sistemalari

dunyo standartlarida rivojlanib taraqqiyod qilmoqda. Ohirgi yillarda ishlab shiqilgan filmlar “Ajiniyaz” nomli badiiy publisistik film shunga aniq misol bola oladi. Filmda ozovlashtirish va musiqa shovqimlar bezagi yuqori darajada ishlangan va tomoshabinlar bu filmni yaqshi kutib oldi. Film yaratilish mobaynida jonli yozib olingan tovushlar, Ajiniyoz yashab otgan yoshlik davlrari atmosferasi nafaqat korinishidan balki ovoz jihatdan yahshi ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Деникин А.А. *Звуковой дизайн в кинематографе и мультимедиа*. – Москва: Изд-во АСТ, 2018.
2. Holman T. *Sound for Film and Television*. – Focal Press, 2010.
3. Rumsey F., McCormick T. *Sound and Recording: Applications and Theory*. – Routledge, 2014.
4. Dolby Laboratories. *Dolby Digital Technical Guide*. – San Francisco, 2005.
5. Sony Corporation. *SDDS Overview*. – Tokyo, 2003.
6. IMAX Corporation. *IMAX Sound System Whitepaper*. – Toronto, 2008.

REZYUME. Maqolada XX–XXI asr boshida ovoz dizayni rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va ular kino hamda teatr san’atiga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX kabi ko‘p kanalli audio tizimlarning shakllanishi ovoz muhitining badiiy-estetik qiyofasini tubdan o‘zgartirib, tomoshabin idrokiga yangi dramaturgik imkoniyatlar olib kirgani asoslanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar tufayli ovoz dizaynida mustaqillik, “DIY” konsepsiyasi, shuningdek internet orqali tovush materiallari bilan ishlash jarayonining soddalashgani ko‘rsatiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется развитие звукового дизайна в конце XX – начале XXI вв., внедрение цифровых технологий и их влияние на кино и театральное искусство. Появление многоканальных аудиосистем, таких как Dolby Digital, DTS, SDDS, IMAX, кардинально изменило художественно-эстетический облик звуковой среды и привнесло новые драматургические возможности в восприятие зрителя. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий в формировании концепции «DIY» (сделай сам) и упрощению работы с аудиоматериалами посредством интернета.

SUMMARY. This article examines the development of sound design in the late 20th and early 21st centuries, focusing on the implementation of digital technologies and their impact on cinema and theatrical arts. The emergence of multichannel audio systems such as Dolby Digital, DTS, SDDS, and IMAX has fundamentally transformed the artistic and aesthetic dimension of the sound environment, introducing new dramaturgical possibilities for audience perception. Particular emphasis is placed on the role of digital technologies in shaping the “DIY” concept and simplifying access to audio materials through the internet.

JADID DRAMATURGIYASINING MILLIY TEATR SAN’ATI RIVOJIDAGI O‘RNI VA NAZARIY ASOSLARI

Barno Nurmanova – *dotsenti v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi

Tayanch so‘zlar: jadid, dramaturgiya, teatr, janr, komediya, drama, ma'rifatparvarlik.
Ключевые слова: джадиды, драматургия, театр, жанр, комедия, драма, просветительство.
Key words: jadids, drama, theatre, genre, comedy, drama, enlightenment.

Abdulla Qodiriy milliy dramaturgiyani alohida, ayni paytda murakkab adabiy tur deb hisoblaydi va u bilan qo‘lida qalami bor har qanday kishi ham shug‘ullana olmasligini aytadi. Adib muammoning ayni shu jihatlariga yechim axtaradi. Teatr uchun maxsus yozilgan asarlar, bu sohaga begona kishilar tomonidan emas, balki, o‘z egalari, ya’ni, dramaturglar tomonidan amalga oshirilishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Ammo milliy dramaturgiya hali tetapoya qadamlarini qo‘yib, maydonga chiqib kelayotgani bois, teatr risolalari yozadigan ijodkorlar aniq malakaga ega emasligini anglagani bois: birining yozganida xalq turmushidan yaxshi mavzu topilsa, badiiy talqini zaif; boshqasinikida to‘g‘ri talqini topilsa, mavzudan begonalashuv borligini eslatadi. Bu nihoyatda aniq va dolzarb masalalar tahlili edi. Bunday maqolalar milliy teatr nazariyasini yanada takomillashtiradi. Sahnalashtirilgan komediya sirtdan qaraydigan tomoshabinga nihoyatda yengil janrga o‘xshab tuyuladi, aslida esa eng qiyini kulguli asar yaratishdir. Dramaturgiyada haqiqiy